TASDIQLAYMAN
"UAT" MChJ direktori
F.I.Ibragimov _____
2025-yil "___" _____

Asosiy va yordamchi ishlab chiqarishning ishlab chiqarish sexlari xodimlari uchun qishki maxsus kiyimni sotib olish maqsadida eng yaxshi taklifni tanlash uchun
TEXNIK TOPSHIRIQ

1. Tovarga qo'yiladigan umumiy talablar

Yetkazib beriladigan tovar zavod o'ramida yangi, markirovkalangan va nuqsonsiz bo'lishi kerak.

Yetkazib beriladigan tovarning sifati texnik topshiriqda ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak.

Maxsus kiyim ishchilarni ochiq havoda va isitilmaydigan ishlab chiqarish xonalarida ishlaganda umumiy ishlab chiqarish ifloslanishlaridan, mexanik ta'sirlardan va noqulay harorat sharoitlaridan himoya qilish uchun mo'ljallangan.

Xarid ishtirokchisi test sinovlarini o'tkazish uchun tayyor mahsulot namunalarini va belgilangan talablarga muvofiqlik sifat sertifikatlarini taqdim etishi shart.

Furnitura (tugmalar va boshqalar) kimyoviy yoki mexanik shikastlanmagan bo'lishi kerak. Furnitura kimyoviy tozalash va issiqlik bilan ishlov berishga chidamli bo'lishi kerak.

2. Logotipga talablar

Maxsus kiyimga "Uzbekistan Airways Technics" logotipi tushirilgan bo'lishi kerak. Qo'llash usuli - mashina kashtachiligi.

3. O'lchamlar va o'ramga qo'yiladigan talablar

O'lchamlar tanlov g'olibiga qo'shimcha ravishda taqdim etiladi.

Har bir maxsus kiyim to'plami namlik va chang kirishini oldini oluvchi o'ramga ega bo'lishi kerak.

4. Yetkazib berish muddatlari va shartlari

Yetkazib berish muddatlari Shartnomada ko'rsatiladi, biroq Shartnoma imzolangan paytdan boshlab bir oydan oshmasligi kerak.

Mahsulotni buyurtmachi omborigacha yetkazib berish.

5. Tanlovning har bir ishtirokchisi o'z taklifiga quyidagi ma'lumotlarni kiritishi kerak:

- taqdim etilayotgan taklif davlat tilida yoki rus tilida tuzilishi kerak;
- tashkilotning Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma;
- mahsulot birligining qiymatini ko'rsatish;
- taklif etilayotgan mahsulotdan foydalanuvchi kompaniyalar ro'yxatini taqdim etish zarur;
- ishlab chiqaruvchi kompaniya to'g'risidagi hamma foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni (kompaniya veb-sayti, ofis va tikuv sexlari manzillari) ko'rsatish zarur;

6. Sertifikatlash

Gazlamaning texnik parametrlari GOST 11209-2014 ga, yetkazib beriladigan tovar GOST 12.4.280 ga (umumiy ishlab chiqarish ifloslanishlari va mexanik ta'sirlardan himoya qilish uchun maxsus kiyim) muvofiq bo'lishi kerak. Tayyor mahsulotning muvofiqlik sertifikatini taqdim etish. Bundan tashqari, tayyor mahsulotni antistatiklikka sinash bayonnomalari taqdim etilishi kerak.

7. Sotib olinadigan tovar hajmi:

t/r №	Tovar nomi	O‘lcham	O‘lchov birligi	Miqdor
1.	Qishki maxsus kiyimlar komplekti (kurtka va shim (kombinezon)	46	dona	
		48	dona	
		50	dona	
		52	dona	
		54	dona	
		56	dona	
		60	dona	

8. Texnik talablar

№	Nomi	O‘lchov birligi	Miqdor	Tovar tavsifi
1	**Gazlama, isitgich va boshqalar.**			**Gazlama** pishiq bo‘lishi, antistatik (antistatik ip), moy yuqtirmaydigan (MYu) va suv yuqtirmaydigan (SYu) xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Mato tarkibi: paxta 60%, poliester 40%. Gazlamaning tarkibi va xossalari GOST 11209-2014 ga mos kelishi kerak. Gazlamaning zichligi kamida 220 gr/m2, tanda bo‘yicha uzilish kuchi kamida 1000N, arqoq bo‘yicha kamida 700N; ishqalanishga chidamliligi kamida 3500 sikl. O‘ta kuchli iflosliklarni ketkazish uchun mato 60^0C haroratda yuvishga bardosh berishi kerak. Mato butun foydalanish muddati davomida kostyumning tashqi ko‘rinishi va chiziqli o‘lchamlarini saqlab qolishi kerak. Kirishishi tanda bo‘yicha ko‘pi bilan 2% va arqoq bo‘yicha ko‘pi bilan 1,5%. Gazlama kam g‘ijimlanadigan, suv shimmaydigan, quyoshda kuyishga chidamli bo‘lishi kerak. **Rangi:** asosiy gazlama - to‘q ko‘k, yoqa gazlamasi, kapyushon, koketkalar va jaket old bo‘laklari hamda ort bo‘lak yon bo‘laklarining bezaklari - fluoressent sariq. Choklar va iplarning sifati (asosiy gazlama tusiga) GOST 29122-91 ga muvofiq bo‘lishi kerak. Choklarning uzilishdagi mustahkamligi 250 N dan kam emas. **Astar-isitgich matosi** - termofiberli tabiiy sarjadan to‘qilgan. Asosiy gazlama tusiga mos furnitura. Kurtkaning orqa tomonida mashinada tikilgan "Uzbekistan Airways Technics" logotipi bor. Keng yorug‘lik qaytaruvchi yo‘l- yo‘l chiziqlar (4 sm).

Qishki maxsus kiyim komplekti (erkaklar uchun) Komplekt issiq kurtka va issiq shimdan (yoki kombinezondan) iborat				
2	**Kurtka**			To‘g‘ri siluetli **kurtka**, yechiladigan kapyushonli, uzaytirilgan, izolyatsiyalangan, yoqa qaytarmasidan ikki qulfli molniya markaziy ilgakli. Molniya 4 ta yopishqoq shamoldan himoyalovchi klapan bilan yopilgan. Fluoressent sariq rangli asosiy matodan tik yoqa. Yoqaning ichki qismi flanes bilan isitilgan. O‘ng va chap bo‘laklar uch qismdan iborat. Old bo‘lakning yon qismi va koketkasi fluoressensiyalanuvchi sariq rangli matodan tayyorlangan. Koketkalar va tokchalarning tutashgan joylariga 0,1-0,7 sm qo‘sh chokli pardoz chok bilan shamoldan himoyalovchi plankalar tikilgan. Shamoldan himoyalovchi plankalarga kengligi 4 sm bo‘lgan yorug‘lik qaytaruvchi lentalar tikilgan. Old bo‘laklarning shamoldan himoyalovchi klapanlari ostida 18x20 sm o‘lchamdagi ko‘krak kesik cho‘ntaklari bor. Chap tomondagi tokchada shamoldan himoyalovchi klapan ostida 14x10 sm o‘lchamdagi beyjik uchun shaffof bo‘linmali qo‘shimcha qoplama cho‘ntak joylashgan. Old bo‘laklarning ichki qismlarida 15x20 sm o‘lchamli ramkaga o‘rnatilgan ikkita ichki cho‘ntak mavjud. Old bo‘laklarning bo‘rtma choklarida ikkita yon cho‘ntak bor. Orqasi qirqma koketkali, uch qismdan iborat. Suyanchig‘i va koketkasining yon tomonlari fluoressensiyalanuvchi sariq rangli matodan tayyorlangan. Koketkaning orqa qismiga ulangan joyiga 0,1-0,7 sm qo‘sh chok bilan kengligi 4 sm bo‘lgan yorug‘lik qaytaruvchi lenta tikilgan. Yorug‘lik qaytaruvchi lentaning pastki qismida 2 sm masofada "Uzbekistan airways technics" logotipi tikilgan. O‘tkazma yenglar uch chokli bo‘lib, to‘q ko‘k rangli asosiy gazlamadan ichki trikotaj yarim jun manjet-impulsniklar bilan bajarilgan. Yeng uchidan 20 sm yuqorida kengligi 4 sm bo‘lgan yorug‘lik qaytaruvchi lenta aylana shaklida tikilgan. Kurtkaning ichki tomonidan pastga va kapyushonning hoshiyasi bo‘ylab hajmni sozlash uchun tortiladigan iplar bor. Kapyushonda o‘lchamni sozlash uchun yopishqoq lentali qo‘shimcha klapan mavjud.

				Kapyushon molniya yordamida kurtkaga taqilgan.
3	**Shim**			**Shim** to‘g‘ri siluetli, issiq o‘tkazmaydigan, yon cho‘ntaklari kesilgan. Belbog‘ taqiladigan, balandligi 4,5 sm, 1 ta tugma qadaladi. Belbog‘ bo‘ylab 7 ta shlyovka. Shimning tugmasi yashirin molniyada ochiladi. Gulfikka 0,1-0,7 sm qo‘sh baxyaqator yuritilgan. Shim pochasiga yopishqoq lentali klapanli 18x22 sm o‘lchamli yon cho‘ntaklar qo‘yiladi. Shimning pochasi buklama chok bilan tikilgan. Shim pochasi bo‘ylab, aylana shaklida, tizza chizig‘idan 20 sm pastroqda yorug‘lik qaytaruvchi lenta bilan pardozlanadi.
4	**Yarim kombinezon.**			Kengligi 5 sm bo‘lgan baland ko‘krak va orqa qismi hamda sozlanadigan elastik tasmalari bo‘lgan issiq **yarim kombinezon**. Shimlar to‘g‘ri siluetli, belbog‘li va yon cho‘ntaklari o‘yilgan. Shimning ikki yon tomonida 22 sm uzunlikdagi 3 ta tugma qadalgan. Oldinda belbog‘ostida molniyali gulfik. Shimining belbog‘ida 4 ta shlyovka bor. Shim pochasiga 18x22 sm o‘lchamli qopqoqli yon cho‘ntaklar qo‘yiladi. Ko‘krak va orqa qismi shimning belbog‘iga tikilgan. Ko‘krak qismida 18x22 sm o‘lchamli klapanli qoplama cho‘ntak. Ko‘krakning yuqori qismida kengligi 4 sm bo‘lgan yorug‘lik qaytaruvchi tasma tikilgan. Shimning pochasi buklama chok bilan tikilgan. Shimning pochasiga, tizza chizig‘idan 20 sm pastroqda kengligi 4 sm bo‘lgan yorug‘lik qaytaruvchi tasma tikilgan.

Ijrochi:
MMvaTXB boshlig‘i I.O.Burachkovskaya

Kelishilgan:

Direktorning AT TE bo‘yicha o‘rinbosari U.M.Kiyasov

MMvaEB boshlig‘i A.I.Yadiyarov

“UAT” MChJ KQ raisi L.S.Skopina